

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.H.Бобожонов, Г.Г.Козлова

8 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'shma ta'sir qilish usuli yordamida harakatni muvofiqlashtirish ko'nikmalarini yaxshilash 111

D.T.Abduraimov

Talabalar hayoti sifatini yaxshilashda atletik gimnastika vositalaridan foydalanishning samaradorligi..... 116

F.M.Mamadova

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirish mexanizimi 121

M.M.Yuldashov

Ayollar organizmini jismoniy mashqlarga reaksiya qilishida hududiy omillarning ahamiyati 125

N.J.Madaminova

Maktabgacha ta'limda ingliz tilini o'rganish uchun geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: samaradorlik va natijalar tahlili 129

S.M.Sidikov

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini nazorat qilish modernizatsiya..... 133

S.B.Erkinova

Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning kognitiv faoliyatini tuzilishi va turlari 139

IQTISODIYOT**M.R.Dadashzade**

Administration of the production areas based on innovative technology..... 143

FALSAFA**I.M.Arzimatova**

O'zbekistonda modernizatsiya jarayonlari va rahbar kadrlar faoliyati..... 148

F.A.Yuldashev

Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaat kategoriyasining namoyon bo'lishi (ijtimoiy-falsafiy tahlil) 153

Sh.Ismatov

Yangi O'zbekistonda ma'rifiy jamiyat barpo etishning nazariy asoslari 158

B.B.Asqarov

Dizayn fikrlashda empatiya bosqichining pedagogikadagi roli 161

I.A.Asatulloev

Alfred adlarning qalb konsepsiyasida inson barkamolligi omillari..... 164

O.Ortiqov

Mustaqillik davrida ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar tahlili (1990-1994 yillar)..... 172

A.M.Nurmuxammadjonov

Ijtimoiy rivojlanish jarayonida yoshlar musiqiy tafakkurini rivojlantirishning istiqboldagi vazifalari..... 175

A.A.Sayitxonov

Ilmiy qadriyatlarining inson axloqiy va ma'naviy yuksalishiga ta'siri..... 188

SIYOSAT**A.Leyla**

Xitoy Xalq Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy manfaatlari 191

S.N.Abdullayev

Huquqiy ong masalasiga falsafiy yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari 196

TARIH**Sh.M.Abdusatorov**

Jizzax vohasi an'anaviy taomlarining gastroturizmni rivojlantirish bosqichidagi o'rni va ahamiyati (Forish tumani misolida)..... 199



UO'K: 342.51.(575.1)

YANGI O'ZBEKISTONDA MA'RIFIY JAMIYAT BARPO ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОСТРОЕНИЯ ПРОСВЕТИТЕЛЬНОГО ОБЩЕСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR BUILDING AN EDUCATIONAL SOCIETY IN THE NEW UZBEKISTAN

Ismatov Shohrubek 

Buxoro davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya

Yangi O'zbekistonda ma'rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-axloqiy asoslarini optimallashtirish deganda nimani tushunyapmiz, nimalarga e'tibor berishimiz kerak, qanday bunyodkor g'oyalar bizga kuch-quvvat ato etadi, yoshlarimizga cheksiz ilm, kafolatlangan ta'lim olish huquqi va kelajakda munosib va sog'lom turmush tarzi, shuningdek, har bir fuqaroga o'z haq-huquqlarini qonun ustuvorligi asosida ta'minlanishi kabi hodisalarni tushunamiz. Bu borada yaqindagina qabul qilingan yangilangan Konstitutsiyamiz eng avvalo yuqoridagi asosiy g'oyaviy mazmunga ko'ra, yurtimizda qurilayotgan Yangi O'zbekistonning o'zi ma'rifatparvar davlat ekanini, yurtimizdagi barcha sa'y-harakatlar shunga qaratilganini ifodalab turibdi.

Аннотация

Что мы подразумеваем под оптимизацией социально-экономических и духовно-этических основ построения просвещенного государства в новом Узбекистане, на что нам следует обратить внимание, какие творческие идеи дадут нам силы, неограниченные знания, гарантированные знания для нашей молодежи Мы понимаем такое явления, как право на образование и достойный и здоровый образ жизни в будущем, а также обеспечение прав каждого гражданина на основе верховенства закона. В этой связи наша обновленная Конституция, принятая недавно, прежде всего, по изложенному выше основному идеологическому содержанию выражает, что строящийся в нашей стране Новый Узбекистан является просвещенным государством, и все усилия в нашей стране направлены на этот.

Abstract

What do we mean by optimizing the socio-economic and spiritual-ethical foundations of building an enlightened state in new Uzbekistan, what should we pay attention to, what creative ideas will give us strength, unlimited knowledge, guaranteed knowledge for our youth We understand such phenomena as the right to education and a decent and healthy lifestyle in the future, as well as the provision of rights to every citizen based on the rule of law. In this regard, our updated Constitution, adopted recently, first of all, according to the above main ideological content, expresses that New Uzbekistan, which is being built in our country, is an enlightened state, and all efforts in our country are aimed at this.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ma'naviy makon, fuqorolik jamiyati, qadriyat, ma'naviy yangilanishlar, huquq, erkinlik, ma'rifiy jamiyat, ma'rifatparvar davlat.

Ключевые слова: духовность, духовное пространство, гражданское общество, ценности, духовное обновление, право, свобода, просвещенное общество, просвещенное государство.

Key words: spirituality, spiritual space, civil society, values, spiritual renewal, law, freedom, enlightened society, enlightened state.

KIRISH

Yangi O'zbekistonda inson omilini muqaddas qadriyat sifatida yuksaltirish, odamlarni bilimli, baxtli, erkin va farovon qiluvchi ma'rifiy jamiyatni qurish mexanizmi Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqildi. Unga ko'ra, bu mexanizm insonning ma'naviy-ma'rifiy komilligi, ya'ni o'zini o'zi uzluksiz rivojlantirib borishi, jamiyatda hamjihatlikda yashay olishi, boshqalarni o'zi bilan teng ko'rishi, kuch madaniyatini emas, balki mehr, tinchlik va yaxshilik madaniyatini bosh qadriyat sifatida anglashi negizida amal qiladi. Bugungi global makonda, o'zaro raqobat, turli siyosiy, iqtisodiy, g'oyaviy qarama-qarshiliklar nihoyatda kuchaygan hozirgi sharoitda yosh avlod tarbiyasining o'rni va ahamiyati har qachongidan ham ortib borayotgani hech kimga sir emas. Hozirgi vaqtda aksariyat odamlar "mafura" degan so'zga biroz hadiksirab qaraydi, uni demokratik jamiyatga begona deb hisoblaydi. Lekin biz mafura deganda, avvalo fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Shu munosabat bilan ta'kidlab aytmoqchiman: biz barpo etayotgan Yangi O'zbekistonni

FALSAFA

mafkurasi, avvalo, insonparvarlik, ezigulik va bunyodkorlik mafkurasi bo'ladi deya ta'kidlagandi Prezident Shavkat Mirziyoyev.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Ma'rifatparvar jamiyatni qurish g'oyasi 2016-yil Qashqadaryo viloyatida saylovchilar bilan uchrashuvda Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilk dafa jamoatchilik e'tiboriga qo'yilgan edi. Mamlakatimiz rahbari jamiyatning negizi bo'lgan oila va ota-ona ibrat, ularning farzandlar tarbiyasidagi shaxsiy namunasi ma'naviy yuksalishimizning asosi ekanini alohida ta'kidlab o'tdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublika Prezidenti asarlari hamda gazeta, jurnal, internet manbalari ilmiy tadqiqot ishiga kiritildi.

MUHOKAMA

2017-yilning 19-sentyabrida davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida muhim tarixiy hujjat, ya'ni "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlanuvchi maxsus rezolyusiyani qabul qilish taklifi bilan chiqdi. Bu huquqiy asosning muhim maqsadi — barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat ekani ta'kidlandi. Gap faqat bir davlatda ma'rifiy jamiyat qurish haqida ketmayapti, balki butun dunyoda yuksak ma'naviy dunyoqarash va sog'lom turmush tarzini barpo etish ustida ketmoqda. Bu esa, butun dunyoda kuch, zo'ravonlik ishlatish orqali maqsadga erishish siyosatidan tamomila voz kechish va tinchlikka intilish orqali hayot tarzini yuritish siyosatiga o'tishni talab etadi. Mazkur muammoning nechog'li global ekanini jahonda yuz berayotgan bugungi xalqaro siyosat mantig'i ham tasdiqlaydi. Zero, Prezidentimiz alohida ta'kidlaganidek, dunyoda terrorizm tahdidlari, ayniqsa, so'nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi kuch ishlatish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, BMT sessiyasida davlatimiz rahbari "ma'rifiy islom" tushunchasiga ham dunyo jamoatchiligi e'tiborini qaratib, muqaddas dinimizdagi ma'rifiy islom ta'limotini keng yoyish zaruratini ham asoslab berdi. Prezidentimiz raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham ma'rifatli jamiyat barpo etishning harakatlanuvchi kuchi rivojlangan inson salohiyatida ekani ta'kidlab o'tildi. [2] Ya'ni, ma'rifiy davlat va jamiyat ning bosh o'zagi bo'lgan ma'rifiy komillikka erishishning ham uch tarkibiy jihati mavjud. Bu uch jihat bilim, mehnat va aql omillari bo'lib, ular faqat o'zaro faol uyg'unlikda bo'lgandagina samarali namoyon bo'ladi. Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurar ekanmiz avvalo yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda bugungi ma'naviyat fenomenini kuchli ma'naviyatga aylantirishni nazarda tutadi. "Bugungi ma'naviyat" ko'proq odamlarning ongi, tafakkur tarziga salbiy ta'sir etuvchi g'oyaviy-mafkuraviy zug'umlarning urchib ketayotganidan, turli ichki va tashqi tahdidlar ko'payib borayotganidan ogoh etadigan va shu asnoda jamiyatni mazkur balo-qazolardan saqlab qolishning himoyaviy vositasi sifatida maydonga chiqmoqda. "Kuchli ma'naviyat" esa inson uchun muhim bo'lgan his-tuyg'u, ruhiyat bilan barobar aql-tafakkurga suyanishni ham talab etadi. Aql inson uchun o'ylash, fikrlash, anglash, xotirlash, xulosa chiqarish imkonini beradigan natija, noyob ma'naviy qobiliyat. Bugungi dunyoning tobora globallashtirib borishi, axborot oqimining haddan tashqari ko'payib ketishi faqat aql-idrok, ezgu g'oyalarga sodiqlik bilangina millat sofligini, mamlakat barqarorligini ta'minlash mumkinligini ayni haqiqatga aylantirmoqda. Shu ma'noda, kuchli ma'naviyat insonning dunyoga bo'lgan munosabatini aniqlash, o'z xatti-harakatlariga baho berishda faqat va faqat aqlga suyanish maqsadga muvofiqligidan dalolat beradi.[3] Shuningdek Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishdagi eng muhim qadamlardan biri sifatida 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 19-yanvar kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining videoselektor tarzida o'tkazilgan yig'ilishi, 2021-yil 26-mart kuni "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarorini e'tirof etsak mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur qarorlar asosida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi faoliyatining asosiy yo'nalishlari belgilandi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga doir chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dastur doirasida respublika bo'ylab "Ma'naviyat festivali" va "Yilning eng faol ma'naviyat targ'ibotchisi" tanlovi o'tkaziladi. "Bu yilda o'qish zarur bo'lgan 100 ta kitob" ro'yxati tuziladi. Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Respublika kengashining, uning hududiy bo'lim va bo'linmalari tegishli hududiy kengashlarning ishchi organlari hisoblanadi. Qarorga muvofiq, uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi

hamda jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitning holatini aniqlash va manzilli sog'lomlashtirish metodikasi ishlab chiqiladi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar uchun mas'ul xodimlar Markaz huzuridagi "Ma'naviyat targ'ibotchisi" ta'lim muassasasida o'qitiladi. Qaror bilan "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoni ta'sis etildi. Yoshlar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish, ular tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida **"Avlodlar uchrashuvi"** loyihasi asosida barcha ta'lim muassasalarida el-yurt hurmatiga sazovor bo'lgan faxriy avlod vakillari bilan tarbiyasi og'ir o'quvchilarning uchrashuvlarini tashkil etish. Kabi vaifalar ilgari surilmoqda. [4]

XULOSA

Shuni ta'kidlash joizki bugungi global makonda, o'zaro raqobat muhiti, turli siyosiy, iqtosodiy, g'oyaviy qarama-qarshiliklar kuchaygan bir zamonda yoshlarni har tomonlama sog'lom fikrli qilib tarbiyalash ularning ma'naviyatini yuksaltirish, mafukarviy imunitetni shakillantirish dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan aholi o'rtasida ayniqsa yosharning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakillantirish va tarbiyalash ularni g'oyaviy xurujlarga qarshi kurashda mafkuraviy imunitetni shakillantirish muhim vazifa sanaladi. Biz Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurar ekanmiz avvalo yurtimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy islohotlarni tub mohiyatni xalqimizga yetkazish, axlining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, xalqimizning boy tarixi, ilmiy madaniy-madaniy merosi, milliy qadiryatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" O'zbekiston Toshkent -2022-yil. 280 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi.
3. Abduxalil Mavrollov Yangi O'zbekiston gazetasi 2024-yil 13-yan 9-sondagi "Kuchli ma'naviyat qanday shakillanadi" maqolasi.
4. "Ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi O'zbekiston respublikasi Prezidenti qarori, 03.05.2019-yil 4307-son.